# O‘QUV DASTUR PASPORTI

O‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi SSV huzuridagi uzluksiz kasbiy ta’lim muassasalararo muvofiqlashtiruvchi Kengashda ko‘rib chiqilgan va *2025 yil 14 avgustdagi №3-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan*
*Amal qilish muddati 2030 yil gacha*

| | |
|---|---|
| **Ta’lim muassasasi nomi** | Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi |
| **Kafedra/ bo‘lim** | Patologik anatomiya va sud tibbiyoti |
| **O‘quv dastur nomi** | «**Sud-tibbiy ekspertiza**» |
| **O‘qish turi** | Ixtisoslashtirish |
| **O‘quv dastur muallifi/ mualliflari** | Q.A.Maxsumxonov, K.A.Akbergenova. |
| **Siklning umumiy soati** | 720 kredit |
| **Siklda dars beradigan o‘qituvchi va trenerlar** | |

<table>
<tr><td><br>T.f.d, dotsent Q.A.Maxsumxonov</td><td><br>T.f.n, dotsent K.A.Akbergenova</td></tr>
<tr><td>Maqsad</td><td>Sud-tibbiy ekspertiza muassasalariga ekspert lavozimiga ishga qabul qilinadigan yangi mutaxassislarga sud tibbiyoti fani va sud-tibbiy ekspertiza amaliyotining umumiy masalalarini o‘rgatish. Ularga murda va tirik shaxslar sud-tibbiy ekspertiza va tekshiruvlarini o‘tkazish; ekspertizva va tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish, qo‘shimcha sud-tibbiy, klinik, laborator (shu jumladan, sud-gistologik, sud-biologik, tibbiy-kriminalistiki) instrumental tekshiruvlarni o‘tkazish va olingan natijalardan ekspert xulosasi to‘xtamini tuzishda foydalanish; tan jarohatlarining og‘irlik darajasini sud-tibbiy baholash</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| | mezonlaridan foydalanish bo‘yicha nazariy bilim berish va amaliy ko‘nikmalarini yaratish. |
| **Siklga taklif qilingan mutaxasisslar - kontingent** | dastur Oliy tibbiy ta’lim muassasalarining davolash, tibbiy-pedagogika, pediatriya yo‘nalishlari bo‘yicha yakunlagan va keyinchalik magistratura yoki klinik ordinatura kurslarini tugatgan turli soha vrachlariga mo‘ljallangan. |
| **Sikl vazifalari** | Sud-tibbiy ekspertizalar va tekshiruvlarni o‘tkazish tartibini belgilovchi me’yoriy hujjatlar: “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni; sud-tibbiy ekspertizalarni o‘tkazish Yo‘riqnomasi; turli yo‘nalishdagi sud-tibbiy ekspertiza va tekshiruvlarni o‘tkazish qoidalari, standartlari, amallarni bajarish yo‘riqnomalarini o‘rgatish;<br>murdalar sud-tibbiy ekspertizasida: zo‘raki va nozo‘raki o‘lim holatlarida murdalarni sud-tibbiy tekshirish usullarini o‘zlashtirish, voqea joyini ko‘zdan kechirish jarayonida sud tibbiyoti sohasidagi mutaxassisning ish qoidalari bilan tanishish; qo‘shimcha laborator va instrumental tekshiruv natijalarini to‘g‘ri baxolashni; zo‘raki va to‘satdan o‘lim holatlarini KXT – 11 ga mos ravishda tashxislash tamoyillarini o‘rgatish;<br>sud-tibbiy ambulatoriyada tirik shaxslar sud-tibbiy ekspertizasi va tekshiruvlari, sud-tibbiy guvohlantiruv amaliyotini o‘tkazish tartibi va xususiyatlarini o‘rgatish; tan jarohatining og‘irlik darajasini aniqlash mezonlaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish. |
| **Sikl tarkibi** | 1. Modul. Sud-tibbiy ekspertizaning tashkiliy-protsessual asoslari<br>2. Modul. Sud-tibbiy travmatologiya asoslari.<br>3. Modul. Transport travmasi muammolari.<br>4. Modul. O‘q otar quroli va portlash jarohatlarining sud-tibbiy ekspertizasi<br>5. Modul. Kislorod tanqisligi holatlarida sud-tibbiy ekspertiza masalalari.<br>6. Modul. Sud-tibbiy toksikologiya. |

| | |
|---|---|
| | 7. Modul. Fizik omillar ta’sirdan shikastlanish holatlarida sud-tibbiy ekspertiza masalalari.<br>8. Modul. Sud-tibbiy tanatologiya muammolari.<br>9. Modul. Nozo‘raki o‘lim holatlarida sud-tibbiy ekspertiza masalalari.<br>10. Modul. Voqea joyini ko‘zdan kechirish amaliyotida sud tibbiyoti sohasidagi mutaxassisning ish qoidalari.<br>11. Modul. Sud-gistologik tekshiruv usullari.<br>12. Modul. Tibbiy-kriminalistik tekshiruvlarning o‘rni va ahamiyati.<br>13. Modul. Sud-biologik tekshiruvlarining o‘rni va ahamiyati.<br>14. Modul. Tirik shaxslarning sud-tibbiy ekspertizasi masalalari.<br>15. Modul. Tan jarohatlarining og‘irlik darajasini sud-tibbiy baholash masalalari.<br>16. Modul. Tibbiy faoliyatning huquqiy asoslari.<br>17. Modul. Tibbiyot xodimlarining kasb huquqbuzarliklari holatlarida sud-tibbiy ekspertiza masalalari.<br>18. Modul. Murakkab sud-tibbiy ekspertizalarning tashkiliy-protsessual asoslari. |
| **O‘qish bazalari (asosiy)**<br><br>**1. Respublika sud- tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi** | **Qo‘shimcha bazalar (tasdiqlangan shartnoma asosida):**<br><br>**1. Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Toshkent viloyati filiali** |

| | |
|---|---|
| <br> |  |
| | |

| | | |
|---|---|---|
| **Asbob/uskunalar**   |  |   |